

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**



“XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA YANGICHA YONDASHUVLAR”

**Mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy
onlayn anjumani**

**“FIRDAVS-SHOH”
TOSHKENT – 2022**

NEGMATOVA KHILOLA ABROROVNA. THE IMPORTANCE OF IMPLEMENTING IT TO THE TEACHING FOREIGN LANGUAGES	92
NIGMATOVA H.A THE ROLE OF MODERN INNOVATIONS IN SOLVING PROBLEMS FOR TEACHING FOREIGN LANGUAGES	96
NIYAZOVA GULNORA GULOMOVNA. THE ROLE OF PRAGMATIC COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE	100
PIRNAPASOVA UMIDA ANVAROVNA THE INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNIQUES IN TEACHING ENGLISH VIA EDUCATIONAL TECHNOLOGIES	105
PIRNAPASOVA UMIDA ANVAROVNA. LINGUADIDACTIC POTENTIAL OF TEACHING MODERN ENGLISH THROUGH PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES	114
RAKHMANOV SARDOR MUXTORJONOVICH. ASSESSING LEARNERS' LANGUAGE COMPETENCES IN EXTROVERT AND INTROVERT CHARACTERISTICS	122
RASULOVA MUNOJAT. TILSHUNOSLIKDA O'QUV LUG'ATI UCHUN MATERIAL TANLASH	131
RAXMANOVA S. M. THE ROLE OF BLENDED LEARNING AND FLIPPED LEARNING IN TEACHING EFL/ESL STUDENTS	138
RAZZAKOVA GULCHEXRA. TEACHING COLOCATIONS IN ESP CLASSES	143
SALAKHOVA ELZA ZAGIROVNA. TEACHING READING: PROBLEMS, SOLUTIONS AND RECOMMENDATIONS	147
SULAYMONOVA NIGORA ASKARALIYEVNA. ARAB TILIDA O'ZAK MAVZUSINI O'QITISHDA SAMARALI USULLARDAN FOYDALANISH	151
SULEYMANOVA GALINA NIKOLAYEVNA. INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY INTEGRATION IN LANGUAGE EDUCATION/ DISTANCE EDUCATION FOR ESP STUDENTS	155
TURDIEV ISLOMJON MAMADAMINOVICH. ROLE-PLAYING METHOD IN TEACHING ENGLISH AS SECOND LANGUAGE FOR ADULTS	161
TURDIEVA ROZA. IMPLEMENTING CREATIVITY AND INNOVATION INTO TEACHING PROCESS	167
URALOVA H.A.THE ROLE OF INTERACTIVE METHODS TO ENHANCE SPEAKING SKILLS OF STUDENTS	171
XAYDARALIYEVA SAODAT ABDULLA QIZI. DIGITAL TECHNOLOGY IN TEACHING ENGLISH	174
DAUTOVA BEKPOSHSHA ERGASHEVNA. YUKSAK MANAVIYATLI YOSHLARNI TARBIYALASHDA TOXIR MALIK ASARLARINING AHAMIYATI	178

ARAB TILIDA O'ZAK MAVZUSINI O'QITISHDA SAMARALI USULLARDAN FOYDALANISH


Sulaymonova Nigora Askaraliyevna⁴⁶

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab tilining o'ziga xos mavzularidan bo'lgan o'zak va vazn mavzularini tushuntirishda samarali hisoblangan bir qator interaktiv usullar ko'rib chiqiladi va tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: arab tili, o'zak, o'zak undoshlar, noo'zak harflar, hozila so'zlar.

Har bir tilda bo'lgani kabi arab tilida aynan shu tilga xos bo'lgan jihatlar mavjud. Arab tilida o'zak va vazn mavzulari mana shunday mavzular sirasiga kiradi. Bu kabi mavzularni yangi interaktiv metodlar asosida o'qitish mavzuni yanada osonroq tushunish va puxta o'zlashtirish imkonini beradi.

Ma'lumki, arab tilida so'zning o'zagi undosh tovushlardangina iborat bo'ladi. O'zakni tashkil etuvchi undosh tovushlar o'zak undoshlar deyiladi. O'zak undoshlar so'zdagi umumiy ma'noni ifodalaydi. o'zak undoshlarning oldiga, orasiga, orqasiga unli va noo'zak undoshlarning qo'shilishidan so'z hosil bo'ladi⁴⁷.




Misolda asosiy ma'no beruvchi o'zak so'z bu **“darasa”** so'zi bo'lib, u **“o'rganmoq”** degan ma'noni ifodalaydi. Undan yasalgan **“dars”**, **“madrasa”**, **“mudarris”**, **“mudarrisa”** so'zlarida esa aynan o'zak so'zda

⁴⁶ Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Xorijiy tillar kafedrasida dotsenti filologiya fanlari nomzodi

⁴⁷ Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1-jild. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997. – 31-b.

aks etgan ma'no mavjud. *Dars - o'rganish jarayoni, madrasa – biror ilm o'rganiladigan joy, mudarris, mudarrisa – ilmni o'rgatadigan shaxs.*

Mavzuni tushuntirishning aynan mana shu bosqichida talabalar e'tiboriga quyida berilgan aksariyat hosila so'zlari arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlardan iborat bo'lgan “**xalaqa**” o'zagi va undan yasalgan “**xulq**”, **xulqiy**“, “**xalq**”, “**xaloyiq**”, “**xoliq**”, “**axloq**”, “**axloqiy**”, “**maxluq**”, “**maxluqot**”, “**xilqat**” hosila so'zlari havola qilinadi. Talabalar o'qituvchi yordamida har bir hosila so'zni e'tibor bilan ko'rib chiqadilar. Berilgan so'zlarning barchasi arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan, bugungi kunda keng qo'llaniladigan so'zlar hisoblanadi. Talabalar o'qituvchining ko'magisiz osongina o'zak so'zni aniqlay oladilar.



Arab tilida hosila so'zning o'zagini tez aniqlash muhim hisoblanadi, chunki so'zni lug'atdan topishda faqatgina uning o'zagiga murojaat qilinadi, masalan, “**dars**”, “**madrasa**”, “**mudarris**”, “**mudarrisa**” so'zlarining barchasi “**darasa**” lug'at maqolasida berilgan bo'ladi. Shu bois ham talabada hosila so'zning o'zagini oson va tez ajratish ko'nikmasini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan misollarda ko'rinib turganidek, so'z o'zakni tashkil etuvchi undoshlar, ya'ni o'zak undoshlar va noo'zak undoshlardan iborat bo'ladi. Arab tilida o'zak tarkibiga kirmaydigan unli va undoshlarni ifodalaydigan harflar soni 10 ta bo'lib, ular quyidagilar:


ء	ل	ى	و	م
ت	ن	س	ا	ه

Arab tilida mazkur o‘ntalik talaba xotirasida osongina saqlanib qolishi uchun bu harflar ketma-ketligidan quyidagi jumla yasalgan bo‘lib, u o‘zbek tiliga “**Bugun sen uni unutasan**”, deb tarjima qilinadi:

الْيَوْمَ تَنْسَاهُ

Talaba berilgan jumlaning yodlab olishda, noo‘zak harflarni o‘zak harflardan ajratishda qiynalmaydi. lekin bir narsani unutmaslik kerak, arab tilida so‘z tarkibidagi harflarni o‘zak va noo‘zak harflarga ajratish anchayin tajriba talab qiluvchi jarayon hisoblanadi.


Talabaga so‘z tarkibidagi noo‘zak harflarni ajratish bo‘yicha qator mashq va topshiriqlar beriladi. Masalan, quyidagi topshiriqda so‘zlarning vazni osondan murakkabga qarab berilgan bo‘lib, talaba “**alima**” – “**bilmoq**” o‘zagini mana shu vaznlarga solib, ulardagi o‘zak va noo‘zak harflarni ajratib boradi.



<i>so‘z vazni</i>	<i>hosila so‘zlar</i>	
فِعْلٌ	<i>ilm</i>	عِلْمٌ
فِعْلِيٌّ	<i>ilmīy</i>	عِلْمِيٌّ
فَاعِلٌ	<i>olim</i>	عَالِمٌ
فَاعِلٌ	<i>olam</i>	عَالَمٌ
مَفْعُولٌ	<i>ma'lum</i>	مَعْلُومٌ
تَفْعِيلٌ	<i>ta'lim</i>	تَعْلِيمٌ

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, “**alima**” o‘zak undoshlaridan yasalgan hosila so‘zlar bular – “**ilm**”, “**ilmīy**”, “**olim**”, “**olam**”, “**ma'lum**”,

“**ta’lim**” soʻzlaridir. Ularning barchasi arab tilidan oʻzbek tiliga oʻzlashgan soʻzlar. Keying topshiriqda aynan shu oʻzak asosida yasaladigan hosila soʻzlarning buroz murakkablashgan vaznlari beriladi. Ular yordamida talaba soʻz yasashda va nooʻzak harflarni ajratishda davom etadi.



<i>soʻz vazni</i>	<i>hosila soʻzlar</i>	
مُفَعَّلٌ	<i>muallim</i>	مُعَلِّمٌ
تَفْعِيلِيٌّ	<i>ta'limiy</i>	تَعْلِيمِيٌّ
تَفْعِيلَاتٌ	<i>ta'limot</i>	تَعْلِيمَاتٌ
فَعَالَةٌ	<i>alloma</i>	عَلَامَةٌ
مُفَعَّلَاتٌ	<i>ma'lumot</i>	مَعْلُومَاتٌ
فَعَالَةٌ	<i>alomat</i>	عَلَامَةٌ

Jadvalda berilganidek, “**alima**” oʻzak undoshlaridan yana qoʻshimcha oltita hosila soʻzlar yasaladi, bular – “**muallim**”, “**ta’limiy**”, “**ta’limot**”, “**alloma**”, “**ma’lumot**”, “**alomat**” soʻzlaridir. Yuqorida berilgan soʻzlar kabi bu soʻzlar ham arab tilidan oʻzbek tiliga oʻzlashgan soʻzlar. Talabalarga bu kabi soʻzlar bilan ishlash oʻzak undoshlarni ajratib olish koʻnikmasini shakllantirishda dastlab juda qoʻl keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. 1-jild. – T.: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 1997.
2. Hasanov M. Arab tili. – T.: Global books, 2019.
3. Abdujabborov A. Arab tili. – T.: Toshkent islom univwersiteti, 2007.
4. Xalidov B. Arab tili darsligi. – T.: Fan, 2007.